

## “SOG’LIK” LEKSEMALI MAQOLLARNING XALQLAR MADANIYATIDA TUTGAN O’RNI

*L. Ibragimova*<sup>1</sup>

### *Annotatsiya:*

Maqol tushunchasiga berilgan ta’rif va uning xalqlar madaniyatidagi o’zaro kommunikativ bog’liqligi ushbu maqolada ochib beriladi. Maqollarning ijtimoiy-siyosiy vaziyatlarning o’zgarishidan qati nazar o’zgarmasligi ammo ijtimoiy-siyosiy vaziyatlar nuqtai nazaridan qo’shimcha semantik ma’no olish xususiyatiga ega ekanligi aniqlanadi.

*Kalit so’zlar:* Xamsa, tarjima, ma’no, tarixiy atamalar.

*doi:* <https://doi.org/10.2024/82t4m110>

Zamonaviy tilshunoslikka oid tadqiqotlarda madaniyatlar a’ro muloqot masalasi yuqori planga chiqmoqda. Bu kabi sharoitda lingvistik taqiqotlarga e’tibor har bir xalqni madaniyatini o’ziga xos xususiyatini aks ettiradigan lisoniy vositalarini aniqlash va ularni boshqa lingvomadaniyatlar bilan taqqoslanishiga qiyoslanishiga keng e’tibor qaratilmoqda.

Har bir madaniyatning o’ziga xos xususiatlarini namoyish etadigan qator lisoniy vositalar mavjud. Bular jumlasiga, har bir xalqning o’ziga xos frezeologik birliklari hamda poremiologiyasini kiritish mumkin. Aynan paremiologik vositalar ya’ni maqollar, har bir xalqning madaniy tarixi hayotiy tajribalari taffakurini umulashtiruvchi va nutqda namoyish etuvchi vositalar sanaladi. Maqollar o’zlarining ifoda usuliga ko’ra boshqa paremiologik birliklardan va boshqa lisoniy vositalardan farq qiladi. Maqollar ma’lumki qayd etilganidek o’zining ritmik-fonetik mutanosibligi bilan har bir xalq ongida tezroq saqlanib qoladi, shu bilan birga nutqni expressivligini namoyish etishda qo’llaniladi. Shuningdek ikki tilda maqollarni taqqoslayotganda ularning milliy ma’daniy xususiyatlari metalitetinining o’ziga xosligiga keng e’tibor qaratish lozim bo’ladi. Sababi maqollar ko’pgina holatlarda ijtimoiy-siyosiy vaziyatdan qat’iy nazar o’z shaklini yo’qotmaydi. Lekin ijtimoiy-siyosiy vaziyatlar nuqtai nazaridan qo’shimcha semantik ma’no olish xususiyatiga ega. Afonasovanning ta’kidlashicha “maqollar, ajdodlarimizning donoligini namoyish etuvchi asosiy manba sanaladi. Shuningdek ular inson tajribalarini avloddan avlodga saqlovchi va yetkazuvchi eng muhim lisoniy vositalar sanaldi. (Afanosova 150-bet)

Shu nuqtai nazardan maqollar boshqa frazalogik birliklar qatorida lingvo madaniy xususiyatga ega sanaladi. Maqollar borasida tilshunoslarda qator fikrlar mavjud. Jumladan S.E Ojegova va Shvedova maqol har bir millatning nutqi aforizmlarini saqlovchi vosita deb ataydi. Evonova esa maqol har bir xalqning donoligi qarashlari ularning ma’naviy boyligini tildagi metaforik ifodasi deb ataydi. Albatta har bir sohaga oid maqollar singari tibbiyotga tegishli maqollar ham har bir xalqni sog’lik salomatlikka qarashlarini asrlar davomida sog’lik salomatlikni ta’minlovchi yoki unga e’tibor qaratgan xususiyatlarini sog’lik bilan bog’liq ajdodlarimizning tafakkur va qarashlarini o’zida mujassam etadigan paremiologik vositalar turkumiga kiradi.

<sup>1</sup> Ibragimova Lola Asatullayevna, Samarqand davlat chet tillar instituti, Ikkinchi chet tillar kafedrasi o’qituvchisi

Bevosita ingliz tili salomatlikka oid maqollariga na'zar tashlaganimizda birinchi novbatda, ingliz madaniyatida keng tarqalgan hamda ko'pgina tillarga o'zlashgan "health is better than wealth", "good health is above wealth", kabi maqollariga duch kelamiz. Albatta ushbu ikkala salomatlikni muhimligini ko'rsatuvchi maqollar juda ko'p tillar va ularning madaniyatiga o'zlashgan. Yoki bevosita qaytarish usulida tarjima qilingan. Hamda o'grilgan millat, xalqning paremiologiyasining bir qismiga aylanib ulgurgan. Bevosita ushbu maqollarni lingvomadaniy xususiyatiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, mazkur maqollar odatda inson salomatligini boylikdan yuqoriga qo'yadi. Ma'lumki har bir xalq yoki millatda umuman inson ta'biatida boylikka bo'lgan intilish, har bir xalq metalitida mavjud. Bu xususiyat ingliz xalqiga ham xos hodisadir. Shu nuqtai nazdan inglizlarning hayotiy tajribalari, asrlar davomida boylik va sog'likni taqqoslash jarayonida yuzaga kelgan xulosalari, ayniqsa sog'likni boylikdan ustunligi, yoki sog'liqsiz boylikni keragi yo'qligi borasidagi taffakurlarini aks ettiradigan maqollar sanaladi.

Ingliz mentalitida va madaniyatida, sog'liq salomatlik oila bilan ham bog'liqligini namoyish etuvchi quidagi maqol uchradi. "A good wealth and health is the man's best wealth", ushbu maqolda inglizlarning nafaqat sog'likka bo'lgan munosabati balki oila munosabatlari ham inson sog'ligidagi o'rni muhimligini aks ettiradi.

Ingliz lingvomadaniyatida salomatlikni qadrlash, sog'likka e'tibor qaratish muhimligi ko'proq inson hayotiy tajribalari bilan bog'liqligini tasvirlovchi shu bilan birga sog'likni qadrlashga undovchi quidagi maqol e'tiborimizni tordi. "health is not valued tills sickness come" ya'ni kasallik kelmaguncha sog'likni qadri bo'lmaydi. Albatta ushbu maqol ham ingliz metalitini (madaniyatini) aks ettiruvchi va lingvamadiyatida o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Sababi: bu kabi ya'ni uni alohida bo'lagi bo'lgan maqollar jumladan o'zbek lingvomadaniyatida uchramaydi. To'g'ri o'zbek tilida ham shunga o'xshash salomatlikni qadrlash borasidagi qator maqollar mavjud ammo ular lingvamadiy jihatdan o'zbek xalqi meltaliti qarashlarini ko'rsatadi.

### ***Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:***

[1]. Толковый словарь С.И. Ожегова и Н.Ю. Шведовой Ожегов С. И., Шведова Н. Ю. Толковый словарь русского языка / Российская академия наук. Институт русского языка имени В. В. Виноградова. — 4-е изд., доп. — М.: Азбуковник, 1997. — С. 3—5. — 944 с.

[2]. Иванова е.в. мир в английских и русских пословицах. спору, 2006. -СПб.: Изд-во С.-Петербур. ун-та: Филол.ф-т- 280 с.

[3]. Абдуллаев А. А. Contents of linguopoetic analysis of artistic text //международный журнал искусство слова. – 2023. – Т. 6. – №. 5.

[4]. А.Н.Афанасьев.Русский народ. Пословицы, загадки, сказки- Санкт-Петербург2010 г.

[5]. Кароматова К.М, Кароматов Х.С. Proverbs. Мақоллар. Пословицы-Тошкент Меҳнат, 2000.-400 с.